

# TONG Yulduzi

№48 (66381)  
2002 yil  
25 noyabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

## BIZNING BUXOROI SHARIFI

### KOFI ANNANGA SHAHRIMIZ YOQDI

Men Buxoroi sharifning Ark maydoniga juda yaqin ko'chada yashayman. Uyimizdan Labi hovuzga, Nasriddin Afandi haykali turgan maydonga shundoqqina piyoda chiqsa bo'ladi. Har safar ajdodlarim yurgan tabarruk ko'chalardan yurib, ular qurgan ko'hna inshootlarga boqsam, qalbmida allanechuk faxr va iftixor tuyg'ulari jo'sh uradi. Shu ko'chalardan qadrdon maktabim tomon boraman. U yerda meni mehribon ustozim Mavjuda opa Jamolova, qadrdon sinfdoshlarim kutishadi. Biz birgalikda shahrimizdagi qadimiy yodgorliklar, bir-birini takrorlamaydigan maqbaralarni tomosha qilgani boramiz. Ustozimizning maroqli hikoyalari tinglab, ko'p narsalarni bilib olamiz. Bilganlarimizni shahrimizga ko'plab keladigan chet ellik mehmonlarga ham so'zlab berishga harakat qilamiz.

Yaqinda Buxoromiz tarixida unutilmas voqea ro'y berdi: shahrimizga Birlashgan Millatlar Tashkilotining bosh kotibi Kofi ANNAN keldi. Ko'hna va navqiron Buxoroning ta'rifini ko'p eshitgan mehmon, ham xalqimizning mehmondo'stligini ko'rib, ta'riflangandan ham a'lo ekanligini ta'kidladi.

Prezidentimizga maktub yo'llab, yurtboshimizning yurtimiz ravnaqi yo'lidagi sa'y-harakatlarini, biz yoshlarga ko'rsatayotgan g'amxo'rliklarini yuqori baholadi. Bularning barini bizga ustozimiz gapirib berdilar. Ular yana Naqshbandiylar, Ibn Sinoyu Sadriddin Ayniyar avlodi ekanligimizni, ularga munosib farzand bo'lishimiz lozimligini qayta-qayta takrorlaydilar. Biz ham ularning nasihatlariga amal qilib yashashga, o'qib-o'rganishga intilamiz.

**Marina GULYAMOVA,**  
Buxoro shahridagi 11 - maktabning  
3 - «A» sinf o'quvchisi.



Formamiz o'zimizga yarashibdimi?

### NOMGA MUNOSIB BO'LING!

Buvijonim yaxshilar, yaxshilarning naqshilar, desam ishonaverim. Ular bilan bir bor gaplashsangiz, dono maslahatlarini o'rinli nasihatlariga quloq tutsangiz, siz ham yaxshi ko'rib qolasiz. Mahalladagilar bejiz Istat onaxonimizning yuzlaridan nur yog'ilib turadi, deyishmaydi. Ularning tarbiyasini ko'rgan farzandlari ham kam bo'lishayotgani yo'q. Birlari shifokor, birlari muhandis, xullas, hammalari xalqimizning koriga yarayaptilar.

Butun umr bog'cha kichkintoylariga mazali taomlar pishirib bergan buvijonim hozir farzandlari, nabiralari ardog'ida qarilik gashini suryaptilar. Bizning har bir yutug'imizni o'zini deb biladigan buvijonimning yaqinda akam Azizjon Toshkent Diplomatika Universitetiga o'qishga kirganida, quvonganlarini bir ko'rsangiz edi.

- Bolalarim, mehnatdan hecham qochmanglar, usiz hech narsaga erishib bo'lmaydi, -deya nasihat qiladilar bizlarga.

-Siz Buxoro farzandisiz. Bu nomga munosib bo'lishga intiling...

Buvijonim ona yurtlari bilan faxrlanadilar, ushbu tuyg'uni bizga ham singdirishga harakat qiladilar. Hamyurtimiz mutasavvuf olim xoja Baxovuddin Naqshband hazratlari tavalludining 675 yillik to'yi hamda Naqshbandiya tariqatining asoschisi Abduxoliq G'ijduvoniyning 900 yillik yubileyining jahon miqyosida nishonlanishini eshitib, buvimning boshlari ko'kka yetdi.

Shunday kunlarni ko'rsatganiga, yurtimizning tinchligiga shukronalar aytib, har tong qo'llarini duoga ochadilar. Men esa shunday dilkash, mehribon buvijonim borligidan faxrlanib ketaman.

**Mehrangiz MUHAMMEDOVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon shahridagi Ulug'bek nomli  
maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.



"Tong yulduzi"ga



Eng ko'p  
mushtariylarimiz - Buxoro  
viloyatida. Quvonch va tashvishlarga  
yo'g'rilgan xatlar ham ko'proq  
Buxorodan keladi. Yangi yilda ham  
aziz mushtariylar bilan dildan  
suhbatlashamiz, degan  
umiddamiz.

### DARS QULOQQA KIRARMIDI?

Assalomu alaykum qadrdonimiz «Tong yulduzi»! Mana bu yil ham senga obuna bo'ldik. Chunki sen bizning yagona ovunchog'imizsan. Maktabimiz kutubxonasida Respublikamiz bolalari hayotiga oid yoshimizga mos bo'lgan kitoblar yo'q hisobi. O'quvchilarimiz bilimga chanqoq. Ustozlarimiz ham bilimli, tajribali, o'z kasbining haqiqiy fidoiyilari. Biz shogirdlariga bor bilimlarini berishga tayyorlar. Lekin buning uchun yetarlicha shart-sharoit kerak. Qishning sovuq kunlari yaqinlashgan sari bizni vahima bosadi. Chunki sinf xonalarimiz sovib ketadi. Shu bois ba'zan darslar bo'lmaydi. Sovuqdan qaltirab o'tirganingizda qulog'ingizga dars kiradimi?

O'quvchilarimizning 90 foizi maktab formasida emas, uy kiyimida kelishadi.

Aziz «Tong yulduzi»! Senda chop etilayotgan maqolalar orqali Respublikadagi ko'plab tengdoshlarimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan tanishib boramiz. Kompyuter saboqlarini mukammal egallayotgan, ingliz tilini chuqur o'rganayotgan tengdoshlarimizga juda havasimiz keladi.

Zora, sening ko'maging bilan bizga ham yetarli shart-sharoitlar yaratib berilsa. Maqsadimiz o'qish, mamlakatimizning chin bunyodkori bo'lish!

**Zulxumor RO'ZIYEVA,**  
Buxoro viloyati, Olot tumani,  
Denov jamoa xo'jaligidagi  
5 - maktabning 6-sinf  
o'quvchisi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OVASI:  
ASOSIY TUSHUNCHA  
VA TAMOYILLAR

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda.)

Bu mamlakat hududining xavf-xatar o'chog'iga aylanib qolgani yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikka, taraqqiyot yo'lidagi ezgu maqsadlarimizni amalga oshirishga xalaqit bermoqda. Bu — dunyoda yalpi tinchlik va barqarorlikka erishish uchun, avvalo, har bir mamlakat va har bir mintaqada tinchlik-barqarorlikni ta'minlash zarur, degan qarashning bugungi kunda g'oyatda dolzarb ahamiyat kasb etib borayotganidan dalolat beradi.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq biz yurt tinchligini eng asosiy bo'lik sifatida asrab kelmoqdamiz. Bugungi va keyingi nasillar ham ko'p mehnat va mashaqqatlar evaziga qo'lga kiritilgan mana shu bebaho ne'matni asrab-avaylashi zarur. Shundagina ular xalqimizning asl orzu-intilishlariga, istiqol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimiz ruhiga munosib bo'la oladi.

Yurt tinchligi — Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun ham mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor kuchlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim.

Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi — yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir. Xalqimiz uchun azal-azaldan muqaddas bo'lgan bu g'oya jamiyatdagi turlicha fikr va qarashga ega bo'lgan barcha kuch va harakatlarni birlashtirishga va shu orqali milliy hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

(Davomi bor.)



Haftaning har dushanba kuni maktab-internatimizda o'ng qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, Vatanimiz madhiyasini kuylaymiz. Haftaning eng a'lochi, jamoatchi o'quvchisi Vatanim bayrog'ini baland ko'tarar ekan, qalbimiz faxrga to'ladi. Har bir o'quvchi bu baxtga erishish uchun astoydil o'qiydi.

Yaqinda men haftaning eng a'lochi o'quvchisi deb topildim. Hayajonlanganimni bilsangiz edi. Bayroq tomon borar ekanman,

## BAYROG'IM- IFTIXORIM



sevinchdan entikib ketdim. Muqaddas bayrog'imizning internatimiz uzra baland ko'tarayotganimda har bir o'quvchining menga havas bilan qarab turganligini his qildim. Bu men uchun naqadar sharafli edi.

Akalarimiz ham o'z yigitlik burchini bajarishga kirishishlari oldidan Vatanimiz bayrog'ini baland ko'tarib, Vatanga sadoqatli bo'lishga qasamyod qiladilar.

Sportchilarimiz esa yirik sport musobaqalarini boshlashlaridan oldin yana Vatanimiz madhiyasi ila bayrog'imiz hilpiraydi.

Mustaqil O'zbekistonim kun sayin rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy olmoqda. Bunga sabab ham o'z madhiyamiz, bayrog'imiz va gerbimizdir. Chunki bular davlatimizning ramzlaridir.

Muqaddas bayrog'im- mening iftixorim. Xalqimning shon-sharafi, g'ururidir. Shunday ekan, davlatimiz ramzlari bizni mard, vatanparvar, elga, yurtga sadoqatli bo'lishga chorlaydi.

Shahnoza JALILOVA,  
Surxondaryo viloyati, Uzun tumanidagi  
3-iste'dodli o'quvchilar maktab-internatining  
7- «V» sinf o'quvchisi.

XXX

O'tmishi buyuk xalqning kelajagi ham buyuk bo'ladi, mamlakat kelajagi - bolalarga bog'liq. Bu borada bolalar matbuotining o'rni kengroq seziladi. Negaki, matbuot bilan oshno dil tezroq va mukammal kamol topadi. Xuddi onamiz kabi mulohazalarga boy «Gulxan» jumali tahririyati hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining «Milliy g'oya va yoshlar tarbiyasi» mavzusidagi kengaytirilgan yig'in bo'lib o'tdi.

- Bolalar matbuoti bugun millat bolalarining yuzi va ko'ziga aylanib ulgurmog'i kerak. Chunki har bir farzandlarimizning kamoloti jismonan hamda ma'nan sog'lom bo'lishiga bog'liq,- dedi «Gulxan»


jurnali bosh muharriri Omon Matjon.

Darvoqe, shaklan va mazmunan o'zgargan, «Gulxan» jurnali Mustaqillik bolalarining orzu-o'ylarini, ijodkorlik hissini shakllantirib, Respublika miqyosida keng qamralgan holda bolalar masalalarini sahifalarida yoritib kelmoqda, «Men general bo'laman», «Mustaqillik bolalari», «Bobolarimiz», «Meros» kabi ruknlar shular jumlasidandir.

«Bunyodkor yoshlar» teleklubida bo'lgan yig'inda ishtirok etgan «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati vakillari, tahririyat xodimlari, jurnalistlar, shoir va

XXX

Yaqinda «Bunyodkor» yoshlar klubida «Hurriyat» gazetasi maxsus muxbiri Tursunali



Akbarov, Oliy majlis deputati, jurnalistika fakulteti o'qituvchisi To'lqin Eshbekovlar bilan jurnalistika fakulteti talabalari uchrashuvi bo'lib o'tdi. Talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarga to'liq, batafsil javob oldilar. «Bugungi kunda matbuotimizning ahvoli qanday?», «G'arbdan kirib

kelayotgan turli behayo gazeta va jurnallarning o'zbek o'quvchisiga ta'siri» xususidagi suhbat chog'ida turli fikr-mulohazalar bildirildi, yangi g'oyalar ilganri surildi. Uchrashuv ishgirokchilari bunday tadbirlar ko'proq o'tkazib turilsa, yoshlarimiz uchun foydadan holi bo'lmasliki ta'kidlashdi.

Uchrashuv qiziqarli va bahs-munozarali o'tdi.

Jamshid  
ERGASHEV,  
O'ZMU jurnalistika  
fakulteti talabasi.

XXX

«Kamolot»chilar harakati Toshkent shahri sardorlari kuni kecha shahrimizning markazida joylashgan «Bunyodkor» teleklubida samarqandlik tengdoshlari bilan uchrashuv seminari o'tkazdilar va o'zaro fikr almashdilar. Uchrashuvda Toshkent shahar «Kamolot» ijtimoiy harakati raisi Furqat Mahmudxo'jayev va «Kamalak» bolalar tashkiloti Toshkent shahar raisi Gulchehra Olimjonovalar ham qatnashdilar. Uchrashuv so'ngida samarqandlik tengdoshlarimiz bizlarni o'z viloyatlariga taklif

qildilar. Ular Toshkent shahar sardorlar kengashi uyushtirgan katta hasharning guvohi bo'ldilar va o'z shahar, tumanlarida ham shunday shanbaliklar o'tkazishga kelishib oldilar.

Aziz tengdoshlarim, sizlarni ham shanbaliklar o'tkazishga, birdamlikka, ozodalikka chorlaymiz. Har bir uy, ko'cha, mahalla ozoda bo'lsa, yurtimiz ham yanada obod bo'ladi.

Muhayyo OCHILOVA,  
«Kamolot» Yoshlar ijtimoiy  
harakatining Toshkent shahar  
bo'limi kengashi ma'naviy-  
ma'rifiy soha bo'yicha sardori.

## SHAHRIMIZ CHIROYIGA DOG' EMASMI?

Salom «Tong yulduzi»! Samarqandlik Oynisa ismli tengdoshimning «Zirapcha» rukningda bosilgan ko'chalari asfaltlanmaganligi haqidagi tanqidiy maqolasini o'qib, bizning ham ko'chalarimiz asfaltlanmagani haqida yozmoqchi bo'ldim. Uyimizning orqa tarafida avtobuslar bekati joylashgan. Har kuni bekatgacha tuproq kechib borishga majburmiz. Bekatga yetgunimizcha oyoq kiyimlarimizdan tortib, egnimizdagi kiyimlarimizgacha changga belanadi. O'ydim-chuqur joylardan ba'zida yiqilib tushish

ham hech gap emas. Yurtimiz kundan-kunga chiroy ochmoqda. Lekin uning chiroyiga biznikiga o'xshash chang ko'chalar dog' bo'lib turibdi. Har kungi dilxiralikdan qutulish uchun kimga murojaat etishimiz kerak? Yunusobod tuman hokimiyatigami yo mahalla oqsoqollarigami? Yoki...

Iltilmos, menga yordam ber. Balki mutassadi amakilarimiz gazeta orqali ushbu maqolamizni o'qib, tegishli xulosa chiqarib olishar?..

Malika ABDUVOHIDOVA,  
Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani.

ZIRAPCHA

Yangi yilning kirib kelishiga hali bir oydan ortiqroq vaqt bo'lishiga qaramay, hamma joyda «paq-paq»lar boshlandi. Nima haqida gapirayotganimni sezgandirsiz? Ha, o'sha, «paq» etib ovoz

chiqarib, hammani bexosdan cho'chitib yuboradigan o'yinchoqlar haqida gapiryapman. Menga qolsa, ularni o'yinchoq ham, ovunchoq ham deb atamagan bo'lardim. Afsuski, pulning ketidan quvadigan ayrim amaki va xolalarimiz ularni o'yinchoq deb bolalarga sotishyapti. Nahotki ular tufayli sodir bo'layotgan ko'ngilsizliklarni, ayrim bolalarning yuzlari kuyib, ko'zlari ko'r bo'lib

qolayotganini eshitishmagan bo'lsa?.. Albatta eshitishgan, lekin baribir sotaverishadi. Paqildoqlardan jabrlangan bolalarning o'rniga o'z farzandlarini, otanalari o'rniga o'zlarini qo'yib ko'rishganda,

bunday pastkashlikka borishmasmidi?..

O'zlarida insof yo'q ekan, «o'yinchoq»larini

sotib olmay, biz ularni jazolashimiz kerak. Siz nima deysiz, aziz tengdoshim?

Dilshod IMOMOV,  
Toshkent shahar,  
Shayxontohur tumanidagi  
316- maktabning 6- «V» sinf o'quvchisi.

YANA "PAQ-PAQ"  
BOSILANDI

«Qayoqqa boribdi», deyapsizmi? Xaritada mamlakatlarning aksariyatiga. Ha, biz sinfimiz bilan ko'plab sayohatlarga borganmiz, xayolan. Biz o'sha mamlakat tarixi, buguni va kelajagi haqida

kimni bee'tibor qoldirmaydi. Dilorom opani litseyimizda barcha hurmat bilan tilga oladi. Ijtimoiy fanlarga ixtisoslashgan litseyimizda ta'limga

CHET ELGA SAYOHAT

mufassal ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Hashamatli binolar, sarishta ko'chalar, dengiz tog'larda yurgandek bo'lamiz. «Qachon? Qayerda?», dersiz. Ingliz tili darsida! Bizning safarimizga ustozimiz Dilorom opa Umarova boshchilik qiladilar. Albatta har bir sayohat ingliz tilida bo'ladi. Bunday ajoyib uyushtirilgan, yangi so'zlarga, yangiliklarga boy bo'lgan, tarixni o'ziga mujassamlashtirgan dars hech

kuchli e'tibor qaratilgan. Ona tili, adabiyot va tarix fanlari sinfxonalarini mo'jaz muzey desam mubolag'a bo'lmaydi. Saboq olishimizda qo'l keladigan eksponatlarni har bir o'quvchi e'zozlaydi. Men ana shunday bilim maskanida tahsil olayotganimdan faxrlanaman.

Shoira KO'CHIMOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Chiroqchi tumanidagi  
2-litsey-internat  
maktabining  
10- «A» sinf o'quvchisi.

2002 yil-  
Qariyalarni qadrlash yili

Aziz bolajonlar, har kuni sizlarni televizor qarshisiga chorlaydigan «Oqshom ertaklari», «O'yla, izla, top», «Ertaklar yaxshilikka yetaklar», «Kichkintoyimiz - gijingtoymiz», «Dono bobo davrasida» kabi ko'rsatuvlaringiz borligini bilamiz. Bu ko'rsatuvlarni tayyorlab, sizning e'tiboringizga havola qilish uchun juda ko'plab ijodkorlar

tanlovlar o'tkazish udum bo'ldi.

Bolarilar gul atrofida parvona bo'lganidek, bolalar tahririyatida kechgacha bolalar shovqin-suroni, kulgusi tinmasdi. Akmal aka bolalar dunyosi, ularning xohish-istaklari, ruhiyatini yaxshi bilan, har bir bolaning qulfi-dilini ochib yuborar edi. Bolalarning ham u kishiga mehri va hurmati o'zgacha

shuhrat qozongan. Uning chorak asr davomida ijro etgan «Ona madhiyasi», «O'tajonlar», «Onaning ko'ngli bolada» kabi bir kishi ijro etadigan spektakllari tomoshabinlarga juda manzur bo'lgan.

Ota-ona mehri to'yan, doimo ularning nazorati ostida o'sgan bola to'rt muchasi sog',


mahorati, dillarni rom etuvchi obrazlari bilan tomoshabinni ekran yonidan jildirmay qo'yadi. Teleaktyor A.Haydarov har bir spektakl ustida oylab ishlab, uni qiyomiga yetkazmaguncha tinib-tinchimaydi. Har bir so'z, harakat ustida qunt bilan ishlaydi, ularning musiqa, qo'shiq, terma ifoda vositalari bilan bezaydi. Tomoshabinlar,



## TUG'ILGAN KUNINGIZ BILAN, AKMAL BOBO!

mehnat qilishadi. Akmal bobongiz ham ana shunday ijodkor rejissyorlardan biri.

1956 yilda Toshkent telestudiyasiga ishga kelgan Akmal Haydarov o'ttiz olti yil davomida bitta tahririyatda halol mehnat qildi. Oynai jahon sirlarini puxta egallab, o'nlab jurnal, turkum ko'rsatuvlarga shakl, zeb berdi. Bolalar uchun ta'sirchan va sarmazmun telespektakllar yaratdi. «Svetofo», «O'tkir zehnlilar mushoirasi», «Assalom koinot!» kabi turkum ko'rsatuvlari mamlakatimiz bolalari o'rtasida shu qadar mashhur bo'lib ketdiki, uning ta'sirida maktablar, tumanlar, viloyatlarda oilaviy ko'rik-



edi.

Rejissyor A.Haydarov badiiy so'z, yakka aktyor teatrining mohir ijrochisi sifatida ham

yetuk inson bo'lib ulg'ayadi. A.Haydarov ota-onalarga bag'ishlangan spektakllarida so'z qudrati, ijrochilik

mutaxassislarining fikr-mulohazalarini e'tiborga olib tomoshaga sayqal berib boradi.

A.Haydarov spektakllari O'zbekiston televideniyesi xazinasidagi javohirlardir.

Mohir rejissyor va aktyor sifatida o'nlab shogirdlar tayyorladilar. Akmal akaning ko'rsatuvlarida ishtirok etgan kichkintoylar yillar o'tib taniqli televideniyea ijodkorlari bo'lib yetishadilar. Ular orasida T.Mullaboyev, N.Maqsudova, X.Niyozov, J.To'rayev, H.Mirxidojev, SH.Nizomova kabi diktora, aktyor, jurnalist, rejissyorlar bor.

Akmal aka nafaqada bo'lsalar-da, qadrdon jamoalari, hamkasblari, shogirdlari bilan tez-tez uchrashib turadilar.

Oilada qobil farzandlar, bir-biridan shirin nabiralari davrasida izzat-hurmatdalar.

Mahalladagi turli tadbirlar, to'y, marosimlar u kishining ishtirokisiz o'tmaydi. Akmal aka shu kunlarda o'zlarining muborak yetmish yoshlarini nishonlayaptilar. Ko'p sonli jajji tomoshabinlar nomidan tug'ilgan kuningiz muborak bo'lsin, Akmal bobo, deymiz.

Mirza Anvar  
KARIMOV.

Shahzod antiqa so'zlarni ishlatib gapiradi. Buni ilmiy jihatdan «Shahzodning lekikoni» deyish ham mumkin. Tili juda erta chiqqan. 1,5 yasharlighida biyron-biyron gapirardi, biroq - «chet elcha». Uning bunday gapirishiga hammamiz hayron qolardik. «Balki u bir necha asr avval yashagan ajdodlarimiz tilida gapirayotgandir», - degan o'y o'tardi

olingan ekan. Tutqunlikda 25 yil yashagan u inson o'sha qabila tilini mukammal o'rgangan ekan. Haligi qizaloqqa esa ba'zi bir iboralar gen orqali o'tgan ekan. Shu voqeani eshitganim uchunmi, Shahzodning gaplari qiziq tuyuladi menga. Biroq, ba'zida to'g'ri so'z yasaydi. Masalan, ikki buyumni o'lchashda « u c h l a b

atrofdagilari xursand bo'lishyapti?» So'ngra ukamga haqiqatni tushuntirishga to'g'ri keldi.

Shahzod yana ba'zi bir so'zlarning tovushlar o'rnini almashtiradi:

Yarketa - raketa,  
Yalger - lager,

### Ukam Shahzod qiziq-da

Aqir - ariq,  
Xim - mix,  
Mokosikl - mototsikl,  
Muklab - buklab,  
Umshoq - yumshoq,



Barig - barg,  
Hoshim ertaklari - «Oqshom ertaklari»,  
Maxat - faqat,  
Mijig'lab - g'ijimlab.  
Hursat - ruxsat va h. k.  
Shahzod o'zi juda beg'ubor, ko'ngli pok bola bo'lgani uchun ham so'zlarini tuzatishimizga hech qanday e'tiroz bildirmaydi. O'zinikini ma'qullamay, so'zlarni darhol tuzatib talaffuz qiladi.

Bu yildan boshlab Mirzo Ulug'bek tumanidagi rus tiliga ixtisoslashgan 20-musiq maktabiga boryapti. Skripkani astoydil o'rganmoqchi bo'lganligi uchun ham uni ertaroq maktabga berdik. Zehni o'tkirligidan bir chorak davomida

notalarni, birinchi va ikkinchi oktavalarni ehalishni yaxshi o'zlashtirib oldi. Nafaqat skripka, balki fortopyanoni ham yaxshi chalyapti. Rus tiliga e'tiborini aytmaydismi? Avval hecham rus tilini bilmadi. Hozir ruschada yaxshigina so'zlashadi. Hatto uyda ham «mama», «papa» deb murojaat qilib turadi. Maktab hayoti ta'sir qildimi, biroz ulg'aygandek. Mustaqil o'tirib dars tayyorlaydi, mo'yqalam yoki bo'yoq bilan rasm chizadi. I-sinf matematika kitobini, alifbeni mustaqil o'qishga harakat qiladi, bilmaganini mendan so'raydi. «Lego» o'yinini jonu dili bilan yaxshi ko'radi. Xilma-xil mashinalar, robotlar, samolyotu vertolyotlar yasaydi. Yangi-yangi ixtirochalar qiladi. Xullas, serg'ayrat, quvnoq ukam uyda zerikmaydi va boshqalarni ham zeriktirmaydi.

Behzod IKROMOV,  
Ijtimoiy yo'nalishdagi  
Respublika maxsus  
gimnaziyasining 4- «YE»  
sinf o'quvchisi.

## MOKOSIKL - MOTOTSIKL

buvijonimdan. Haqiqatan ham shunga o'xshash voqealar ko'p kuzatilgan ekan. Boltiq bo'yi davlatidan bir qizaloq o'z ona tilini yaxshi bilsa-da, negadir birdaniga umuman boshqacha tovushli uzun-uzun gaplarni gapira boshlabdi. Biroq nima deyayotganiga o'zi ham tushunmabdi. Ilmiy tekshirishlar natijasida bu qiz 240 yil avval yashagan ajdodi tilida gapirgan ekan. U qizaloqning buvisining buvasi bo'lib, kemada ketayotganida, Afrika yaqinida halokatga uchragan, o'sha yerlik bir qabila tomonidan asirga

ko'ring» deydi. Bir tomondan uning gapi to'g'ri. Ikki buyumning ikki uchini qiyoslash ma'nosida. Fikrlashi ham gohida qoyil qoldiradi bizni. Masalan, kino-film bosh qahramon - ayolning ko'ngli buzulib, boshi aylanaveradi, o'zini yomon his qiladi. Keyin uning ona bo'lish arafasidaligi ma'lum bo'ladi. Film qahramonlari bundan xursand bo'lishadi. Maroq bilan tomosha qilayotsak, Shahzod nima deydi deng, «U kasal bo'lsa, nega



# ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

*Ushbu rukni Rustam OBID olib boradi*

*(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).*

Dunyoning geliotsentrik tizimi ham uning uchun ilohiy kashfiyot

**Bilimim shu yerga yetib keldikim, Bilimsizligimni endi tushundim.**  
*Abu Shukur Balxiy*

bo'lmagan.

Quyosh yer atrofida emas, balki yer quyosh atrofida aylanishi haqida Kopernikdan yuzlab yil avval gapirishgan, yozishgan. Ptolomey tizimi izohlab berolmaydigan yuzlab faktlar ko'plab asrlar mobaynida qadimgi Yunoniston, Italiya, arab ilm-fani munajjimlarining asarlarida yig'ilib, to'planib kelavergan. Bu ta'limotda nimalardir noto'g'riligini, Ptolomey yanglishayotganini ko'pchilik his qilardi. Lekin nima o'sha narsalar? Boshi-keti bir-biriga ulanmaydigan bu ta'limotni qanday qilib tuzatish mumkin? Shu paytgacha ishonib kelganlarimiz g'irt yolg'on, aslida hammasi mana-bunday deb yurak yutib aytish uchun kim jur'at etadi?

Olim asosiy asari nashr etilishidan 30 yil muqaddam uning qo'lyozma nusxalarini turli mamlakatlarga yuborgan.

«Nikolay Kopernikning osmondagi harakatlarga doir farazlari to'g'risida va ularga qisqacha sharh» deb nomlanuvchi bo'lg'usi kitobning o'ziga xos qoralamasi edi ular. Bu

qanday shubha-gumon, eng yaqqol dalil-isbotlar tufayli barham topganida hayrat va minnatdorchilik tuyg'usi ham shunchalik kuchli bo'ladi. Ana shularni o'ylagan holda do'stlarim


## QUYOSHNI TO'XTATGAN ODAM

qo'lyozmalar yo'qolib ketgan deb hisoblanardi. Ammo 1878 yil Vena arxivlaridan bittasi, oradan uch yil o'tgach Stokgolmda boshqa nusxasi topildi.

Hayotdagi asosiy asarini nashr etishga qaror qilganda u yoshi bir joyga borib qolgan qariya edi. O'zining haqligiga zarracha shubhasi bo'lmagan Kopernik xotirjamlik bilan shunday deb yozadi: «Ko'plab olimlar va ajoyib insonlar aytishlaricha, barcha matematiklarga foyda

keltiruvchi bu kitobni chop etishdan qo'rqmasligim kerak. Yerning harakatlanishi to'g'risidagi ta'limotim ko'pchilikka hozir qanchalik bema'ni ko'rinsa, kitobim bosilib chiqib, har

nashr etishni ko'pdan buyon mo'ljallab



yurgan asarim chop qilinishiga nihoyat rozilik bildirdim...»

Olimning yakkayu yagona, benihoya sadoqatli va afsuski shu bilangina mashhur bo'lgan shogirdi Retik

qimmatbaho qo'lyozmani Nyurnbergga, matbaachilarga eltib topshirdi, muallif esa minorasida kutib

**Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.**  
*Sharq naqli*

qoldi. U deyarli hech qayerga chiqmas, huzuriga ham kamdan-kam odamni chaqirardi. Olim kitobini kutardi. 1542 yil o'pkasidan qattiq qon ketib, o'ng qo'li va oyog'i shol bo'lib, to'shakka mixlanib qoldi. Kopernik bir umr shoshmasdan yashagandi, o'limi ham og'ir kechib, uzoqqa cho'zildi. 1543 yil 25 may kuni uzoq kutilgan kitob nihoyat Nyurnbergdan keltirilganda olim behush edi, lekin muqovani avaylab silab-siypaladi. Bu nima - kitobni erkalaginimi? Himoya qilganimi? Yoki unga oq yo'l tilaganimi?

Kopernik o'sha kuniyoq vafot etdi. Taqdir o'lim bilan barhayotlikni uchrashtirgan edi. Olimning qabri yo'qolib ketdi. Ammo kitobi qoldi!

*(Tamom).*

*Maktab sahnasi uchun*

## KELING, BELLASHAYLIK!

*Iqtisod fani yuzasidan «Istiqbol» va «Tadbirkor» guruhleri o'rtasida o'tkaziladigan do'stlik bellashuvining dasturi:*

*(Istiqbol guruhi uchun.)*

**1. Guruhning tabrik qismi.**

**Birinchi boshlovchi:**

Assalom azizlar, qalbi quyoshlar,  
Iqtisod ilmini sevuvchi yoshlar.  
Bugun biz sizlarga qilamiz ta'zim,  
Avvalo sog' bo'ling, ustoz muallim.

**Ikkinchi boshlovchi:**

Assalom sizlarga ey aziz do'stlar,  
Faqat iliq gaplar keladi tilga.  
Quvonchimiz cheksiz, bosh ko'kka yetar,  
Shodliklar ulansin dillardan dilga.

**Birinchi boshlovchi:**

Bo'lib bir bahona yig'ildik bu kun,  
Tadbirkorlik sirin o'rganmoq uchun.

Siz bilan bellashmoq axir bu sharaf,  
Kimlar dono bo'lsa, omad u taraf.

**Ikkinchi boshlovchi:**

Raqiblar emasmiz, do'stmiz-ku hamdam,  
Bizga ham kulib boq baxt, omad har dam.

**2. Xor ijro etiladi. («Tinchlik istar» qo'shig'i.)**

**3. Guruhning yetti ishtirokchisi harflardan she'r boshlab, «Istiqbol» so'zini yozadi.**

Istiqboling porloq bo'lsin,

Intilganga toledir yor.

Ilm olib mag'rur yurgin,

Do'stmiz senga «Tadbirkor».

Sayohatga mayli boshlang,

Siz-la suhbat quraylik.

Bellashuv bo'lib bahona

Sizga hamdam bo'laylik.

Toleingiz kulib boqsin,

Iqtisodni o'rganib.

Bozor, foyda, pul, daromad,

Qolar sizga bog'lanib.

Istiqbolning keng yo'lidan,

Charchamasdan odim bos.

Obod yurtning shon-shuhrati,

Olam aro ketsa bas.

Qadr-qimmat yo'qolmasin,

U bozorda sotilmas.

Toza vijdon, sof muhabbat,

Oltinga ham topilmas.

Bola boshidan derlar,

Egallaymiz bilimni.

Kelsin alplar, botirlar,

Bukisholmas belimni.

Ona yurtim O'zbekiston,

Sen men uchun yagonasan.

Tadbirkorning baxti kulgan,

Bag'ri keng bir koshonasan.

Loqaydlarni yoqtirmas,

Otasi ham onasi.

Epchil, chaqqon, dono bo'l,

Istiqbolning bolasi.

**5. «Istiqbol» guruhiga raqib guruh tomonidan savollar beriladi. (Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin)**

1) Bozorni sahnaviy ko'rinishda tasvirlab bering.

2) Mikrokreditning mohiyatini tushuntiring.

3) Biznes rejani sharhlab bering.



«Tadbirkor» guruhi ham xuddi shunday dastur asosida bellashuvda ishtirok etishi mumkin.

**6. Bellashuv so'ngida hakamlar tomonidan tayyorlab qo'yilgan savollarga ham ikkala guruh sardorlari javob beradilar.**

Oltita bosqich bo'yicha hakamlar hay'ati o'z fikr-mulohazalarini, qo'ygan baholarini e'lon qiladilar. G'olib guruh aniqlanadi. Bellashuvga guruhlar jo'rligida «Do'stlik»ni tarannum etuvchi qo'shiq bilan musobaqa tugallanadi.

**Mahliyo AHMEDOVA,**  
**Namangan viloyati, Koson tumanidagi 24 - maktabning 11- «A» sinf o'quvchisi.**

## LOTIN ALIFBOSINI O'QISHGA QIYNALADIGANLAR



qulog'ida qoladi, deyishganda, o'ylab o'tirmay o'sha nomni topdim, u nom «ULUG» bo'ldi.

**Eshitishimizga qaraganda siz Sharqshunoslik institutida o'qir ekan siz. O'qishingiz san'at bilan shug'ullanishingizga qiyinchilik tug'dirmaydimi?**

-Yo'q. Men «Yigit kishiga qirq hunar oz», degan maqolga suyanaman. O'qishimga keladigan bo'lsak,

juda ham sevaman, qo'shiq aytishchalik emas, albatta.

**-Bu an'anaviy savol, ashula aytishingizga kim turki bo'lgan?**

-Turki bo'lgan inson bu mening yakkeyu yolg'iz akajonim bo'ladi. Ularning ismlari Umid. Ular menga ko'p yordam beradilar, albatta otanamning duolari bilan birga.

**-Nima uchun qo'shiqlaringiz dard, ayriqlik haqida? Qo'shiqlarni kim haqida yozasiz?**

-Bilasizmi, o'zim sho'x bola bo'lsam ham nimagadir ichimdan dardli so'zlar chiqib, ularni dardli qilib ijro qilish yoqadi. Lekin bu faqat dardli qo'shiq aytaman, deganim emas. Yaqinda juda sho'x, juda quvnoq qo'shiqlarimni lentaga yozish arafasida turibman.

**-Sizga qaysi qo'shiqchilar yoqadi?**

-Men bu yoki u qo'shiq yomon chiqibdi demayman. Chunki bitta qo'shiq bunyod bo'lguncha undagi mashaqqatlarni faqat qo'shiqchining o'zi biladi.

**-Qo'shiqlaringiz kimga bag'ishlangan?**

-Bilasizmi, mashhur kinoaktyor Charli Chaplin aytgan ekan, Mening hayotim qanday kechganini bilmoqchi bo'lsangiz, kinolarimni ko'ring, deb. Mening ham ba'zi yillarim - qo'shiqlarimda aks etgan.

**-Eshitishimizcha, siz «Baxt va**

**Boyluk» deb nomlangan qo'shiq'ingizga klip olibsiz. Shu rost bo'lsa, uni qachon TV orqali ko'ramiz?**

-Rost, shu oy ichida TV orqali namoyish etiladi.

**-Klipdagi voqealar qanday kechadi?**

-Men oddiy oiladagi qo'shiqchi bola bo'laman. Mening mashnam ham, boyligim ham bo'lmaydi, lekin yorimga nisbatan muhabbatim bo'ladi. Yorim esa bunga qanoat etmay, bir mansabdor yigit bilan uchrashib yurganini ko'rib qolaman va unga qarab «Bilmadim yo boylikka, husnga uchding, ayt gulim qay biridan baxtingni topding» deb qo'shiqni boshlayman.

**-«Tong yulduzi» gazetasi nimga muxlislarga, maktabdo'st do'stlaringiz aziz uksingillaringizga dil so'zlaringiz.**

-Men juda ham xursand bo'ldim «Tong yulduzi» gazetasida shunday muloqot bo'lganidan. Chunki bu gazeta mening bolalikdagi hamrohim. Hozir ham bu qadrdon gazetam meni yo'qlab uyimizga yil bo'yi kelib turadi. Tengqur ijodkor

do'stlarim, kursdosh talabalar bilan lotin alifbosidagi gazetani sharillatib o'qiyman. Lotin alifbosini o'qishga qiynaladiganlar «Tong yulduzi»ga obuna bo'lishsin. Har borada murabbiylik qila oladi u.

**Abduhamid  
ABDUG'AFFOROV  
suhbatlashdi.**

**-Aying-chi, nima uchun sizning qo'shiqlaringizni FM-radiolarida berishganda Ulug'bek ijrosida deb emas, Ulug' ijrosidagi qo'shiq deb e'lon qilishadi?**

-Chunki hammaga mening ismim Ulug'bek deb aytaverishdan charchab ketganman. Qolaversa, meni bolaligimdan Ulug' deb chaqirishlariga o'rganib qolganman. Tanishlarim o'zingga original nom top, tinglovchilaring

men 4-kursda o'qiyman, yo'nalishim esa tarixchi. Tarixni

**«Tong yulduzi»ga**



**(Davomi. Boshi o'tgan sonda)**

Abdulloh xizmat taqozosi bilan Hurmitonga kelib qoldi-yu, taqdir taqozosi bilan qadrdon do'sti Rayxon bilan Afshona qishlog'ida ko'rishib qoldi. Ular Balxda ilgari bir necha bor uchrashishgan. Abdulloh shunchaki xushmuomala, istarasi issiq, qalban islomiy inson bo'lgani uchun emas, yuragida unga nisbatan do'stlik nuri yolqinlanib, tug'ishganidek yaxshi ko'rib qolganidan Rayxonni xonadoniga boshlab borib, ota-onasiga tanishtirgan edi. Mana endi Abdulloh Rayxonning yurtida. Rayxon qo'yarda-qo'y may do'stini xonadoniga taklif ayladi. Ko'p izzat-ikromlar ko'rsatib, ko'nglini olishga, yegan tuzlarini oqlashga harakat qilib, oshnasi uchun deb to'kin dasturxon yozdi. Abdullohning nigohi ittifoqo Rayxonning singlisi Sitorabonuga tushib, yuragi jiz etib «Sening yulduzing mana shu, mahkam tut», degan sado yuragining tub-tubida jarangladi. Ko'zlar ko'zlar bilan to'qnashdi, bir qarashdayoq qalblar-qalblarga tutashdi. Bu taqdir yulduzlarining uchrashuvi edi. Yo'qsa yoshi o'ttizga yaqinlashib qolgan Abdullohning ham hali biror qizga ko'ngli tushmagan, uylanishga shoshmagan. Ota-onasi qiz qidirib qayerlarga borishmadi, ko'ngliga yoqadigani uchramadi shu topgacha. Mana o'sha topilmagan to'tiyoni Abdulloh shu yerda hoki Turonda, Buxoro sharifning Afshonasida uchratdi. Taqdiri azalning kuch-qudratiga qarangi, ko'zlar sohiblarining ixtiyorisiz uchrashib, qalblar unsiz ko'rinmas rishtalar ila birbirlariga tutashdi, muhabbat muhri shunda bosildi. Abdulloh uchun bundan ortiq baxt bo'lishi mumkinmi!

Sitorabonu-chi, aytishlaricha bu go'zal

ayolning ajdodlari turkiy kalonlarga borib taqaladi. Saodatli qiz ekan, unga ham baxt—go'yo osmondan tushib qolganday. Sitorabonu o'zining orzu qilgan baxt yulduzini ko'p izladi. Har kim ham ko'ngliga yoqavermadi. U yulduz Balxda ekan, o'sha yoqlardan uni deb uchib keldi.

Mana endi, orzular ushaldi, birinchi farzand ham dunyoga keldi. Subhi sabodan to'yib

## IBN SINONING BOLALIGI

nafas olgan Abdulloh Allohga shukronalar aytib, asta Sitorabonuning yoniga kelib o'tirdi. Beshikdagi farzandiga mehr bilan qarab:

-Hoy Ali, nechun erta tongdan xarxasha qilursen, onangga rahming kelmaydimi? -deya erkaladi.


-Qorni ochibdi-da dadasi, qarang-qarang, voy o'lmasam. Sizning ovozingizni tanimoqda-ya. Ziyarak bola-da, sizning har bir harakatingizni kuzatmoqda, go'yo gaplaringizni tushunganday... Ko'ring-a, bir Sizga, bir menga qarar, ko'z tegmasin, «tuf-tuf».

-Xudo umri bilan bergan bo'lsun. Allohdan shuni so'raydurmen, - dedi Abdulloh.

Husaynning tug'ilishi ham bir qiziq tarix. Sitorabonu o'sha kuni peshindan so'ng «bugun payshanba, osh damlay qolay», deb sabzi olmoqchi bo'lib hovlidagi o'raga engashgan ham edi-ki, birdan holati o'zgarib,

ichidan bir kuchli to'lg'oq qo'zg'alib kelganday tuyildi. Zo'r-bazo'r uyu kirdiyu, o'zini boshqara olmay, o'tirib qoldi, aksiga olib, o'sha damda uyda hech kim yo'q edi. Cho'ri qiz ham ruxsat olib qishlog'iga ketgan. Abdulloh tezda kelurmen, deb zarur yumishlari ko'payib ketdimi, qaydadir yuribdi.

Dard shunday og'ir keldiki,



Sitorabonuning dodini eshitadigan, boshini tutib turadigan birorta kimsa yo'q edi uyda. Qandaydir qudratli bir narsa butun vujudini titratib, yorug' dunyoga kelayotganday tuyulardi. Yosh kelinchak bunaqa holatga tushishi, bola tug'ish qanaqa bo'lishini qaydan bilsin. Yuragi urib bir narsa bot-bot tomog'iga tiqilib kelar, vujudi titrar, peshonasidan ter quyib, o'zini qo'yarga joy topolmas. Qo'lga xontaxaning oyog'i tushib qoldi-yu, jon-jahdi bilan tutib Allohga nola qila boshladi. Ammo bag'ridagi jigarbandi bo'lsa, to'polonini qo'yamas, hayot-mamot uchun bor kuchi bilan yorug' dunyoni ko'rmoqqa oshiqardi.

Bu qanaqa farzand o'zi, hech kim yo'q paytini topganini qarang-a. Abdulloh benihoya ehtiyotkor, es-hushli odam bo'lsayu, nega endi suyukli xotining oy-kuni yaqinlashganini bila-turib, shunday mas'ul damda qaylarda yuribdi ekan o'zi? Xizmatkorchi, Sitorabonu atrofida har kuni girdikapalak bo'lib turadigan qiz kelib-kelib

shu bugun ketib qoladimi? Bo'lmasa doya xotinga ham tayinlab qo'yilgan, dard boshlanishi bilan yetib kelasiz deb, unga kim xabar beradi shu topda. Ajabo, balki shu bugun dunyoga kelayotgan yangi mehmonning xohishi shundaymikin, hech kim yo'q vaqtda tug'ilishni istaganmikin...

-Barcha narsani bilib, ko'rib, sezib, eshitib turguvchi yakkeyu yagona Alloh, o'zing rahm-shafqat ayla, dardimga davo ber, orzularim tezroq ushalaqolsin... Bu Sitorabonuning ikki yo'l oralig'idagi iltijosi edi.

Nolishlari Allohga borib yetdi shekilli, Sitorabonuga qandaydir kuch keldiyu, birdan jon holatda baqirib yubordi, bu ham achchiq, ham quvonch nolasi edi. Chaqaloqning bag'illagan ovozi xonani tutib ketdi, ha, mana, men ham yorug' dunyoga keldim, deb achchiq-achchiq yig'lardi...

Sitorabonu bo'lsa hushdan ketdi, chaqaloqning yig'isi bir zumda ona qalbiga mehr bo'lib yetib bordi shekilli, oyoq-qo'lga issiq yugirib, ko'zini ochdi va jon-jahdi bilan talpinib o'rnidan turdi.

Onaning nigohi ne qilarini bilmay ko'zlarini pir-piratib turgan baroq mushukka tushib qoldi. Nazarida mushuk bolaga sapchimoqchi bo'lib turganday tuyildi unga. Aslida ona-bolaga qanday yordam berishni bilmay yuragi tipirchilardi u bechoraning. Sitorabonu qo'rqib ketdi-yu, nima qilarini bilmay yonida turgan to'sni olib chaqaloqning ustiga yopdi, keyin uyoq-buyog'larini tuzatib, tartibga keltira boshladi. Eshik yonida turgan obidastani olib tahorat ayladi, keyin kelib tos tagidan chaqalog'ini oldida, mehr bilan bag'riga bosdi...

**(Davomi bor).**

## SINF BOSHIG'I "SOTQIN" MI?

Sinfimizdagi o'g'il bolalar bilan qizlar o'rtasida o'zaro mehr va hurmat bor edi. Maktabdan tashqari bo'ladigan har bir ishlarda sinfimiz faol qatnashar edi.

Yaqinda bo'lgan bir voqea sinfimizni ikki guruhga bo'lib tashladi.

Bir kuni katta tanaffusda maktabimiz orqasida sinfdosh o'g'il

tamaki bor edi.

Tezda tamakini tashlab yuborishdi va bu hol boshqa takrorlanmasligini aytishdi. To'g'rirog'i, iltimos qilishdi. Tamakini birinchi va oxirgi marta qo'llariga olganliklarini qayta-qayta izohlashdi. Biz qizlar sinfdoshlarimizning gaplariga ishonдик.

Biroq, sinf boshlig'i Lobar ustozimizga ko'rganlarini hammasini aytib beribdi. Sinf rahbarimiz esa darhol ota-onalarni majlisga chaqirdilar. Biz o'quvchilar bu gapdan bexabar edik. O'g'il bolalar o'z ota-onalaridan yaxshigina dakki eshitishibdi. Ertasi kuni ular barcha qizlardan qattiq xafa bo'lishdi. «So'z bergan edik-ku», deya bizni sotqinlikda ayblashdi.



bolalarning turganini ko'rib qoldik. Ular bizni ko'rishlari bilan o'zlarini noqulay his qildilar. Ularning sirli harakati bizning e'tiborimizni tortdi. Hech ikkilanmay sinf boshlig'i Lobar boshchiligida bolalar oldiga bordik. Ne ko'z bilan ko'raylikki, ularning qo'llarida

Biz Lobarining bu harakatini qanday baholashni ham bilmay qoldik. Yoki sinf boshlig'ining vazifasimikan? Siz nima deysiz?

FERUZA.

Tarbiyaviy soatlarda o'qing va muhokama qiling

Maktabimiz o'z uyimiz

Mana birinchi chorakni ham yakunladik. Deyarli har bir o'quvchi o'z bilimi va iqtidoriga yarasha baholandi. Nega «deyarli?» Ushbu savolimizga maqolamiz davomida javob olishga harakat qilamiz.

Biz o'quvchilarga ma'lumki, chorak yakunida «tipirchilab»

U fanlarni o'zlashtirishda ancha qiynaladi. Ayrim o'qituvchilar: «Sening xulqingga «5» baho, bilimingga «2» baho», - deyishadi. Gohida Shavkatga rahmimiz ham keladi. Chunki hech birimiz u bilan o'rtoq emasmiz. Bunga asosimiz ham bor.

Ikkinchi chorak boshlanganida ustozimiz tarbiyaviy soat o'tkazdilar.

Sinfning intizomi va bilimi haqida gapirdilar.

Shavkatga esa alohida to'xtaldilar. Emishki, Shavkat yaxshi o'qiydiganlar safiga yetib olibdi. Hatto fizika, matematika fanlaridan Zarnigor bilan «bilimi» tenglashibdi.

Hammamiz Shavkatdan o'rnak olsak arzir ekan.

Ustozimizdan bu gapni eshitib, hafsalamiz pir bo'ldi. Biroq hech kim ustozga qarshi gap aytolmadi. Tavba, sinf rahbarimiz Shavkatning baholari uning onasini ekanligini bilmaydilarimi? Yoki...

Xullas, «5» baho kimniki ekanligini o'zimiz ham tushunmay qoldik.

Iskandar ODILOV.

## A'LOCHI KIM?


qolamiz. Fanlardan baholarimiz yaxshi va a'lo bo'lishiga shoshilamiz.

Men 6-sinfda o'qiyman. Qaysi maktabda o'qishimni aytish shart emas. Bu yil bizga fizika fani o'tilyapti. Fizika o'qituvchimiz juda talabchan,

qattiqqo'l ekanlar. Hatto sinfimizning eng a'lochi o'quvchisi Zarnigor ham bu fandan «besh» baho ololmadi.

Chorak yakunlanay deb qolganida sinfdoshimiz Shavkatning onasi har galgidek maktabimizda paydo bo'ldi.

Shavkat aslida juda tartibli, intizomli bola. Hech kim bilan ishi yo'q, gaplashmaydi, sirlashmaydi. Doimo bir o'zi yuradi. Biroq o'qishlari juda yomon.




## YAXSHILIKKA YETARLOYCHI KITOBLAR

Dadajonim bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblar o'qishni juda yaxshi ko'radilar. Shuning uchun ham doimo kitob xarid qiladilar. Ayni kunda ularning yangi kitoblari 300 taga yetgan va kichkinagina kutubxona tashkil qilganlar. Ular orasida o'zbek, chet el, rus va albatta bolalar adabiyoti joy olgan.

Kutubxonadan ko'plab do'stlarim foydalanadilar. Ular kitobni yirtmasdan, ozoda saqlab o'qiydilar.

Dadajonim bizga kitob sovg'a qilishni xush ko'radilar. Kitobni do'st



deb bilishimizni qayta-qayta takrorlaydilar.

Aziz tengdoshlar, sizlarga ota-onangiz badiiy kitoblar sovg'a qilishadimi? Bordi-yu sovg'a qilishmagan bo'lsa, u holda ayting, siz uchun kitoblar xarid qilishsin. Shunda kitobni o'qishga harakat qilasiz va ishonamizki, unga mehringiz tushadi. Kitob bizlarni faqat yaxshilikka yetaklashini tushunib olasiz.

Ulug'bek NURIDDINOV,  
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi H.Olimjon nomli 12- maktabning 5- «V» sinf o'quvchisi.

Bu yil bizga ikkinchi qavatdan, maktabimizning orqa ko'chasiga qaragan sinf xonasini berishdi. Sinfimiz katta, yorug'. Biroq, deraza oynalari yo'q edi. Sinf rahbarimiz va ota-onalarimizning mehnatlari bilan barcha deraza oynalari qo'yildi. Sinfimiz issiqqina bo'ldi. Bundan biz o'quvchilar juda quvondik.

Ammo

## BILMAY QOLDIK

quvonchimiz uzoqqa cho'zilmadi. Haftaning birinchi kuni sinfimizga kirganimizda deraza oynalaridan eng kattasi chil-chil bo'lib sinib yotardi. Bu holni ko'rib ustozimiz qatori biz ham qattiq xafa bo'ldik. Axir katta qiyinchilik bilan deraza oynalarini joyiga o'rnatgan edik-da.

Ertasiga ham oynalardan bir nechtasi singan edi. Hatto sinfimizda bir necha katta-katta toshlar ham bor edi. Toshlarini ko'rdigu bu ish ataylab qilinganini tushundik.

Shunda sinfimiz bolalari bilan

kelishib, maktabdagi «mish-mish»larga quloq solishga qaror qildik. Eshitishimizcha, yuqori sinfda o'qiydigan ikki, uch o'quvchi sinf rahbarimiz, matematika o'qituvchisi bilan chorak baholari ustida tortishib qolibdi. Ular darsdan keyin, maktabda hech kim qolmaganda, sinfimiz oynalariga qarab tosh otishibdi. Shu yo'l bilan o'zlaricha «alamidan» chiqishibdi.

Bu gapni eshitib, o'sha maktabdoshlarimizga nisbatan nafratimiz oshdi. Ularning oldilariga borib, shu ishingizdan uyalmasizmi?, degimiz keldi. Hatto bu haqda sinf rahbarimizga ham aytib berishni lozim deb topdik.

Biroq, sinfdoshimizning gapidan keyin biroz o'ylanib ham qoldik. O'z ko'zimiz bilan ko'rmaganimizdan keyin qanday qilib ularni ayblaymiz?


To'g'risini aytsak, eshitgan mish-mishlarimizni sinf rahbarimizga aytishimizni ham aytmasligimizni ham bilmay qoldik.

Alisher AZIZJON o'g'li.






Suratlardagi 10 ta farqni toping.



«MUSHUKCHA»



Ushbu so'zlar bilan katakchalarni mos ravishda to'ldiring.

1. Mushukcha.
2. Atirgul.
3. Osmon.
4. Nom.
5. Gitara.
6. Lola.

7. Mosh.
8. Quyun.
9. Sholi.
10. Qozi.

Tuzuvchi: Munisa AVAZOVA,  
Poytaxtimizdagi 85-  
maktabning 6- «A» sinf  
o'quvchisi.

Bir qiziqarli topingdan  
 shingil topingdan

## TOG'DAY SABR, SAMODAY BARDOSHI

G'alaba

Yarim kecha. Osmon boshiga to'q ro'molini o'ragan. Men esa ko'kdagi yulduzlarni kuzatib yotardim. Beixtiyor osmonning paxta uyumlariday bulutlari tomon keta boshladim. Bulutlar bag'rida suzar ekanman, birdan chaqmoq chaqib, momaqaldiroq boshlandi.



Farishtadek oppoq sochlari kapalak libosiday mayin ot bilan, zulmat pardasini yopingan qop-

to'ldirdi. Hammayoq charog'on bo'lib ketdi. Ko'zim yorishib hech nimani anglay olmasdim,

uyg'onib ketdim. Qarasam, quyosh allaqachon borliqni yoritib yuboribdi.

Tong shabadasi derazamning oppoq pardasini tortqilardi...

Pardaning erkalanib hilpirashi tushimda

qora ot jang qilishardi. Ular o'rtasidagi jang avjiga chiqq boshladi. Yuzlarida g'azab o'ti alanga olayotgan yovuz ot raqibining ustidan g'alaba qozona boshladi. Uni yanchib tashlamoqchi bo'lganda, osmon bu yovuzlikka chidolmay, bulutlari bag'ridan yovuz otga olmos tig' sanchdi. Olmos tig' otning ko'ksini teshib o'tdi. Go'zal paridek oq ot esa sochlarini jilolantirib osmonni nurga

ko'rgan oppoq otning yollarini eslatardi. Esladimu ezgulik doim yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga amin bo'ldim. Ezgulik g'alaba qozonishi uchun esa inson qalbida tog'day sabr va samoday cheksiz matonat bo'lishi kerak.

Shahnoza PIRMATOVA,

Nafis san'at litseyining

«Suhandon» guruhi o'quvchisi.

## SKANVORD

1	2				3	4			
	5								6
7					8				
9			10						
11				12	13	14			15
			16	17					
			18	19		20			
21									22

Savollar: 1. Estrada xonandasi (famiyasi). 2. Uchirish moslamasi. 3. Mevalardan biri. 4. ... sajdagohdek muqaddasdir. 5. Sport oyoq kiyimi. 6. Metro bekatlaridan birining nomi. 7. Olimpiada xudosi. 8. Tur. 9. Padar. 10. Yakka, dona, bir, yolg'iz. 11. Namoz vaqti. 12. Hind ayollarining milliy kiyimi. 13. San'at turi. 14. Aziz inson. 15. Bog'lovchi. 16. Hajviy kinojurnal qanday nomlanadi? 17. Itlarga beriladigan nom. 18. Nota. A. Pillapoya. B. Qirg'izistondagi shaharlardan biri. 19. Farzand. 20. Afrika qaysi foydali qazilmasi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi? 21. Baliq turi. 22. Tub so'z.

Tuzuvchi: Hilola EGAMBERDIYEVA,  
Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi 312 - maktabning  
7- «A» sinf o'quvchisi.

## TOPISHMOQLAR

Usti xuddi xaritadek,  
Bo'yni uzun xodadek.



Yediradi, ichiradi,  
Hamamizni to'ydiradi.  
Isitadi, sovutadi,  
O'ynatadi, kuldiradi.  
To'rtta farzand singari,  
Ahil, inoq yashashar.  
Bir onaning bag'rida,  
Navbat bilan yayrashar.



Toksiz ishlar kompyuter,  
Buyuradi, qiladi,  
U hammada bo'ladi.

Joni bitta,  
Ignasi mingta.



O'zi bitta, qo'li ikkita,  
Tishi mingta, joni yo'q.

Munisa UBAYDULLAYEVA.

## QIZIQARLI TOPISHMOQLAR

Podshoning o'g'li kechirib bo'lmas gunoh qilibdi. Bu davlatda qonun shohu gadoga barobar ekan. Chorasiz qolgan podsho uni zindonga tashlashni buyuribdi. Shahzodaning iltimosiga ko'ra yolg'iz o'zi o'tirishi uchun dumaloq shaklda alohida zindon qurdiribdi.

Oradan yillar o'tib, jazo muddati tugagan kuni podsho o'g'lining yoniga oshiqibdi. Shahzodani mahkam bag'riga bosib, ko'rishibdi. Shu payt ko'zi zindonning bir burchagida yotgan odam suyaklariga tushibdi. Axir zindonda o'g'limdan boshqa hech kim yo'q edi-ku, deb o'ylabdi u.

Savol: Zindon burchagidagi suyaklar kimga tegishli?

xxx

O'tgan zamonda bir podshoning ajoyib uzugi bo'lgan ekan. Xomush yurgan kishi shu uzukka qarasa yoki undagi so'zlarni o'qisa, dili ravshan tortar, quvnoq, xushchaqchaq yurgan kishi esa bu so'zni o'qib, xomush tortib qolarkan.

Savol: Shohning uzugiga qanday so'z bitilgan?

xxx

Rus millatida shunday bir ism bor. Unda o'ttizta «ya» harfi mujassam.

Qani toping-chi, bu qanday ism?

Nigora ESHIMOVA,  
Arab tiliga ixtisoslashgan  
29 - maktab o'quvchisi.

## Bizning to'garak

«Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'uloti yanada qiziqarli o'tdi. Chunki bolalarning sevimli shoiri Abdurahmon Akbar to'garak mehmoni bo'ldi. Qariyb o'ttiz yildan buyon bolalar uchun ijod qilib kelayotgan shoirimiz yosh ijodkorlarga bolalikdagi orzu va ilk ijodlari haqida gapirib, musiqa bilan ijodning o'zaro bog'liqligini misollar bilan aytdi. E'tiborli yosh ijodkorlar sinchkov bo'lsalargina, yaxshi she'rlar yoza olishlari mumkinligini, «laylak singlisini puchuqqinam deya erkalaydi» iborasi kabi qarama-qarshi fikrlardan jamlangan she'rlar qiziqarli chiqishini ta'kidladilar.

Mehmonimiz bolajonlarning she'riy mashqlaridan, ular esa shoirning quvnoq she'rlaridan tinglashdi. Gazetamizning keyingi sonida Abdurahmon Akbarning she'rlaridan jamlangan lotin alifbosidagi kitobchani chop etishni rejalashtirib qo'ydik.

## ONAJON

Barcha-barcha insondan,  
Onajonim yaxshilar.  
Alla aytalar agar,  
Ular go'yo baxshilar.  
So'zlari ma'noga boy,  
Bizlarga berar ziyo.  
Bir qo'lida beshikni,  
Birda tebratar dunyo.

Robiya ORTIQOVA,  
Toshkentdagi 193 - maktabning  
7- «V» sinf o'quvchisi.

Tulkiy



Chumolixon



## DARYO BO'YIDA

O'tirardim daryo bo'yida,  
Bir kattakon terakni ushlab.  
O'ynagandim qo'shni to'yida,  
Ko'ylagimning qirg'og'in tishlab.  
Hoy o'rtoq, kel, o'ynaymiz birga,  
Kel tortinma, uyalmagin hech.  
Erkin qushdek o'ynaymiz birga,  
Bu farovon yurtimizda tinch.  
Yurtim shunday nurli bir bo'ston,  
Mevalari sharbatlarga boy.  
Havas qilar ko'rgan har inson,  
Suq-la boqar hatto ko'kda Oy.  
Mana bugun baxtli men va sen,  
Borar edik daryoni bo'ylab.  
Qiyosini topolmasdan men,  
O'tirardim shularni o'ylab.

Shahnoza SAYFUTDINOVA,  
Andijon viloyati, Andijon tumanidagi  
25 - maktabning 7 - sinf o'quvchisi.

## CHAQQON BOLA

Sanjar juda sho'x bola. Kun bo'yi ko'chada koptok tepsa ham, to'ydim, demaydi. Opasi Nilufarni-ku aytganlarini umuman qilmaydi. Bir kuni onasi Sanjarga:

- Sanjar, o'g'lim. Opangning aytganlarini qilsang, ishlariga ko'maklashib yuborsang, hayvonot bog'iga olib boraman, - debdi.

Sanjar «xo'p» deb ko'chaga chiqib ketibdi. Shu kuni yomg'ir yoqqan bo'lib, ko'chalar loy ekan. Sanjar ariqda to'lib-toshib oqayotgan suvdan olib, ko'chalarga sepayotganmish...

Dilshod G'OFUROV,  
Shayxontohur tumanidagi G'afur G'ulom nomli  
169 - maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.

Ali, Vali va G'ani degan aka-ukalar  
televizor orqali qiziq bir  
filmni tomosha qilib  
o'tirishardi. Birdan chiroq  
o'chib qoldi. Shunda  
kichkintoy G'ani: «Tezroq  
shamni yoqinglar, eng qiziq  
joyi o'tib ketadi» deya  
harxasha qila boshladi.

x x x

-Oyi, kuchugimni bog'cha opamga aytib beraman.

-Nega o'g'lim?  
-Tirnog'ini olmay kelibdi...



x x x

-Doktor, o'g'lim ruhamni yutib yubordi. Tez yetib keling.

-Hozir mijozlarim ko'p, keyinroq boraman. Ungacha qalam bilan yozib turing...

x x x

-Qosimov, qani ayt-chi, choynak biqirlaganda nima bo'ladi?

-Ichidagi mikroblar «yordam beringlar»

Sitora UMAROVA,  
Samarqand viloyati, Jomboy tumanidagi  
46 - maktabning 5-sinf o'quvchisi.

## GULLAR

Gullarni jamlasak, bo'ladi chaman,  
Ularni ko'rganda quvonar dillar.  
Bolalar kulsalar, gullaydi Vatan,  
Yurtimiz chiroyi shu biyron tillar.



## KELAJAK BIZNIKI

Biz mustaqil Vatan yaratdik,  
Tikladik kechagi tariximizni.  
Ertangi kunga bizlarmiz posbon,  
Kelajak bizniki, aziz bolajon.

Hulkar MIZOMOVA,  
Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi 68 - o'rta ta'lim maktabining 6 - sinf o'quvchisi.

Naima va  
Nigora qalin,  
s i r d o s h  
d u g o n a .  
Ko'pchilik  
ularning  
ahilligiga  
havas bilan  
qarardi. Lekin  
ikkisi ikki olam:

Naimaga o'z sirlarini aytgan ekan.  
Naima esa ularni oshkor qilibdi.  
Natijada ayrim bolalar Nigoraning  
aytib beribdi.

## MUAMMO

(Hikoya)

ustidan oshkora kulishibdi.  
Gavhar bu voqeani shunday

qilishi mumkinligini anglab, bor  
gapni sinf rahbari Umida opaga  
aytib beribdi.

Shu kuni darsdan keyin  
majlis bo'libdi. Umida opa  
Nigora va Naimalar misolida  
o'quvchilarni ahil, bir ota-  
onaning farzandlaridek mehr-  
oqibatli bo'lishga chaqirdi.  
Ustozning gaplarini tinglab,  
o'ylanib qoldim: dunyoni  
titratib, hammani besaranjom  
qilayotgan ayrim  
buzg'unchiliklarning ildizi  
ham ehtimol ana o'sha kichik-  
kichik chaqimchiliklarda,  
kelishmovchiliklardadir.  
Kichik, arzimas ko'ringan  
muammolar vaqtida hal  
qilinmasa, oqibati yomon  
bo'lishi tayin.

Qimmatoy ABIDDINOVA,  
Andijon viloyati, Buloqboshi  
tumanidagi 3 - o'rta  
maktabning 9-sinf  
o'quvchisi.



qoldirib bo'lmasligi, qolaversa,  
chin do'stiga xiyonat qilgan Naima  
ertaga butun sinfiga ham xiyonat



Nigora bir so'zli, og'ir, vazmin  
qiz. Har bir gapini o'ylab  
gapiradi. Shuning uchun ham  
uni hamma hurmat qilardi.  
Naima esa biroz sho'xroq,  
qiziqqon qiz bo'lgani bois, boshqa  
dugonalari bilan tez-tez urishib  
turardi.

Bir kuni Nigora maktabga  
tushkun kayfiyatda keldi. Unisi,  
bunisi sababini so'rashgandi,  
vazmin qiz emasmi, aytmadi.  
Gavhar ismli sinf boshlig'i bu  
dilxiralikning tagiga yetibdi.  
Nigora do'stim deb ishonib,

## YOMG'IRDA

Yomg'ir chog'i Ra'nodan,  
So'rar sekin Saida:

- Yomg'ir yog'ishi bilan,  
Quyoshjon qoldi qayda?  
- U ham xuddi biz kabi,  
Topgandir bir pana joy.  
Bulutlar orasida,  
O'tirgandir hoyna-hoy.

Dilrabo  
DO'STQOBILOVA,  
Toshkent shahar, Yakkasaroy  
tumanidagi 118- maktabning  
5 - «A» sinf o'quvchisi.

## Qisqichbaqa



Rasmlar muallifi: Zamira  
AXROROVA,  
Poytaxtimizdagi  
272 - maktabning  
5- «A» sinf o'quvchisi.

Ona yurtning - oltin beshiging  
**TONG  
Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA  
AXBOROT AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruz JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvov SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyat-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nusxada ofset usulida  
bosildi.

Korxonalar manzili:  
«Buyuk Turon» ko'chasi,  
41.  
Buyurtma № T-961  
Gazetani  
Muhabbat MAXSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Feruz ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75